



QORAQALPOQ DOSTONCHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI

Dauletbaev T. Q.

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali "Umumkasbiy va
ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri*

*Taqrizchi: O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali
professori Kalliev A.N.*

Tayanch so'zlar: san'at, tarix, folklor, an'analar, og'izaki ijod, badiiy ijod, doston, jirov, baxshi, qobiz, dutor, epos.

Ключевые слова: искусство, история, фольклор, традиции, устное творчество, художественное творчество, эпос, жиров, бахши, гобиз, дутор, эпос.

Keys words: art, history, folklore, traditions, oral creation, artistic creation, epic, jirov, bakhshi, qobiz, dutor, epos.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqi dostonchilik san'atining tarixi va rivojlanish bosqichlari bayon etilgan. Qoraqalpoqlar yarim ko'chmanchi hayot tarzi va xalq an'alariga asoslangan holda o'zlarining boy folklor va badiiy ijodlarini vujudga keltirganlar. Maqolada qoraqalpoq dostonchilik san'atining kelib chiqishi, uning shakllanishi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari ijrochilari haqida ta'kidlangan. Shuningdek maqolada qoraqalpoq xalqining madaniy va badiiy merosini asrab-avaylash va rivojlantirishdagi muhim qadamlarni aks ettirilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описаны история и этапы развития эпического искусства каракалпакского народа. Каракалпаки создали свое богатое фольклорно-художественное творчество, основанное на полукочевом образе жизни и народных традициях. Статья посвящена зарождению каракалпакского эпического искусства, его становлению и исполнителям на современных этапах развития. В статье также отражены важные шаги по сохранению и развитию культурного и художественного наследия каракалпакского народа.

SUMMARY:

This article describes the history and stages of development of the epic art of the Karakalpak people. The Karakalpaks created their rich folklore and artistic creations based on the seminomadic lifestyle and folk traditions. The article focuses on the origin of Karakalpak epic art, its formation and the performers of modern stages of development. The article also reflects important steps in the preservation and development of the cultural and artistic heritage of the Karakalpak people.



Kirish. Qoraqum va Qizilqum cho'llarini ajratib turuvchi Amudaryo bo'yida qoraqalpoq xalqi yashaydi. Qoraqalpoq xalqi yarim ko'chmanchi tarzda hayot kechirishgan va bir nechta qabilalarga bo'linishgan. Qabilalar o'zaro ahil yashamaganlar. Qabilaga biylar boshchilik qilganlar. Qoraqalpoq xalqi asosan dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullangan.

Qoraqalpoq xalqi an'anaviy badiiy ijodiyoti shakllarining vujudga kelishi va rivojlanishi uning etnik tarixi bilan chambarchas bog'liq. Qoraqalpoq xalqining kelib chiqishida ko'p noaniqliklar bo'lsada, tarixiy, arxeologik, etnografik ma'lumotlarga ko'ra, qoraqalpoq xalqining ajdodlari sak-massaget qabilalari vakillaridir. Sak-massaget qabilalari er. av. VII-V asrlarda Orol dengizi bo'yida yashaganlar. Er. VI-VIII asrlarida Orol bo'yiga sharq tomondan ko'plab turkiy qabilalar ko'chib kela boshlaganlar. Yerlik xalqlar va ko'chmanchi qabilalarning assimilyatsiyasi natijasida Amudaryo bo'yida pecheneglar vujudga kelgan. VIII-XI asarlarda Movarounnahrda «qoraqalpoq» xalq sifatida shakllana bordi.

Tadqiqot muammosi. Qoraqalpoq dostonchilik san'atining rivojlanish tarixi va uning asrlar davomidagi evolyutsiyasi hali to'liq o'rganilmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot muammosi quyidagi masalalarni qamrab oladi

- Tarixiy manbalar kamchiligi: Qoraqalpoq dostonchilik san'atiga oid avvalgi asrlarga mansub yozma manbalarning etishmasligi va bu san'at turning og'izaki shaklda saqlanishi muammoni qiyinlashtiradi.

- An'analarning saqlanishi va transformatsiyasi: Qoraqalpoq dostonchilik san'atidagi an'analarning saqlanishi va ularning zamonaviy davrdagi transformatsiyasini o'rganish zarurati mavjud. Bu jarayonda an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar o'rtasidagi muvozanatni aniqlash lozim.

- Zamonaviy texnologiyalar ta'siri: Zamonaviy texnologiyalar va media vositalarning qoraqalpoq dostonchilik san'atini saqlash va tarqatishdagi roli. Yangi avlodning bu san'at turiga bo'lgan qiziqishi va uning rivojlanishiga tasiri.

- Ijodkorlar: Qoraqalpoq dostonchilik san'atining zamonaviy ijodkorlari va ularning o'rganish. Hozirgi kundagi ijodiy namunalarning qadrlanishi va ularning ijtimoiy ahamiyati.

Bu tadqiqot muammosi ushbu mavzudagi asosiy masalalarni qamrab oladi va qoraqalpoq dostonchilik san'atini yanada to'liq tushinishga yordam beradi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Dostonchilik san'ati tarixini yoritishda quyidagilar muhim omil sifatida xizmat qilishi kutilmoqda:

1. Qoraqalpoq xalqining tarixiy va etnik o'ziga hosliklari, ularning og'izaki ijodlari, shu jumladan, dostonlar, qo'shiqlar va afsonalarning rivojlanishiga ta'sir etgan.

2. Dastlabki dostonchilik namunalari, ularning mavzulari va shakllari, shuningdek, ularning xalq hayotidagi o'rni.

3. Qoraqalpoq dostonchilik san'atining zamonaviy davrdagi rivojlanishi, yangi avlod ijodkorlari va ularning ishlari.

Mavzuning dolzarbligi. Qoraqalpoq dostonchilik san'atining rivojlanish tarixini o'rganish, xalqning madaniy va ma'naviy merosini saqlab qolish hamda uni kelajak avlodlarga etkazishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu bir nechta sabablarga ko'ra dolzarbdir

- Qoraqalpoq dostonchilik san'ati xalqning og'izaki ijodiy merosi bo'lib, uni saqlab qolish va o'rganish xalqning tarixi va madaniyatini asrab-avaylashga xizmat qiladi.

- An'analar va innovatsiyalar: Dostonchilik san'atining rivojlanishi an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Bu madaniy boylikni yangi avlodlarga etkazishga yordam beradi.

- Etnik identifikatsiya: Qoraqalpoq dostonchilik san'atini o'rganish xalqning etnik identifikatsiyasini va o'zligini anglashni mustahkamlaydi. Bu xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

- Ilmiy tadqiqot va ta'lim: Ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ta'lim faoliyatlari madaniy merosni o'rganish va unga qiziqishni oshiradi, shuningdek, madaniy turizmni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Qoraqalpoq dostonchilik san'atining rivojlanish tarixi ushbu san'at turning asrab-avaylash va yanada rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqning ma'naviy va madaniy merosini kelajak avlodlarga etkazishda katta rol o'ynaydi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar xalqning boy madaniy merosini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati. XII-XIII asrlarda qoraqalpoqlar Amudaryoning quyi hududlarida yashaganlar va Xorazm davlatining tarkibida bo'lganlar. XIII asrda Oltin O'rda mo'g'ullari bosqinchiligi O'rta Osiyo xalqlariga ocharchilik va qashshoqlik olib keldi. Ushbu davrda qoraqalpoqlar g'arbga, Volga va Ural daryolari atrofidagi hududlarga ketishga majbur bo'ldilar.

XVII-XVIII asrlarda qoraqalpoqlarning aksariyati Sirdaryoning quyi va o'rta oqimlari bo'yida joylashdilar. 1811 yili esa ular Xiva xonligi tarkibiga kiritilgan.



Qoraqalpoq xalqi o'zining shakllanish jarayonida qozoq, turkman va o'zbek etnoslarining kelib chiqishiga asos solgan qipchoqlar, o'g'uzlar, xorazmliklar bilan aralashib bordi. Shu bois qozoq, turkman va o'zbek xalqlari etnik tarkibida uchraydigan qabila va urug'lar, qoraqalpoqlarda ham uchraydi.

Qoraqalpoqlar asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar. XVI asrdan boshlab dehqonchilik va baliqchilikni o'zlashtira boshladilar. Ammo XX asrga qadar mazkur xalq yarim ko'chmanchi hayot tarzini kechirdilar.

Qoraqalpoq dostonchilik san'atining rivojlanish tarixi, bugungi kungacha yetib kelishi to'liq o'rganilmagan bo'lib, dostonlar tarixi ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid Adambaeva T. Revolyutsiyag'a shekemgi qoraqalpaq muzikasi. Nukus, 1976. 67-bet., Azimova A.N. Zvukovoy mir karakalpakov. Tashkent, 2008. 114-bet., Ayimbetov Q. Xaliq danalig'i. Nukus, 1988. 86-bet., Qoraqalpaq xaliq namalari (Kirish so'zi) // O'zbek xalq muzikasi. VIII tom. Toshkent, 1959. 407 b., Qurbonov X. Qoraqalpoq jirovchilik san'atining musiqiy xususiyatlari. Diplom ishi. 1998. O'zDK kutubxonasi. 101-102-bet. Adabiyotlari tahlil qilindi va iqtiboslar olindi.

1924 yili Qoraqalpoq avtonom oblasti tashkil etildi. 1936 yildan esa Qoraqalpoq avtonom respublikasi tashkil etildi (O'zbekiston tarkibida).

Qoraqalpog'iston hududida arxeologik qiymatga ega bo'lgan mingdan ortiq yodgorliklar mavjud. Ho'jayli shahridan 3 km masofada tepalikda noyob Mizdakhan kompleksi joylashgan. Ushbu kompleksda Geuir qal'a shaharchasi topilgan. Shaharga er. IV asrida asos solingan. Mizdakxanda zardushtiylik diniga oid ko'pgina osori-atiqalar topilgan. Ma'lum bo'lishicha, bu yerdan Buyuk ipak yo'li ham o'tgan. Mizdakhan kompleksidan uncha uzoq bo'lmagan yerda zardushtiyning diniy marosimlar o'tkazish uchun moslangan «Chilpiq» deb nomlanuvchi me'moriy qurilmasi ham topilgan. Ellikqal'a rayonida ko'plab tarixiy-madaniy yodgorliklar mavjud bo'lib, ulardan Ayoq qal'a, Qirg'iz qal'a, Tuproqqal'a alohida ahamiyatga ega. Tuproqqal'ada Ko'hna Xorazm hukmdorlari (xorazmshohlar)ning qarorgohlari bo'lib, u yerda ajoyib freskalar va haykallar topilgan.

Qoraqalpoq xalqining musiqa madaniyatida epik an'ana va qo'shiq ijrochiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoning barcha xalqlari kabi, Qoraqalpog'istonda ham epik ijodiyot doston janri orqali namoyish bo'ladi.

Doston o'zida nasr, she'r va musiqani mujassam etuvchi sinkretik asardir.

Dostonlar qadimgi zamonlarda paydo bo'lib, uning turli variantlari xalq og'zaki an'anasi orqali bizning davrimizgacha etib kelgan. Ko'pgina dostonlarda tarixiy voqe'liklar, xalqning falsafasi, hayot tarzi, ichki kechinmalari aks etgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, zamonaviy O'zbekiston hududida er. av. V-IV asrlarda kuchli rivojlangan og'zaki an'anadagi adabiy ijodiyot mavjud bo'lgan ekan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bizning davrimizgacha og'zaki tarzda etib kelgan dostonlar aslida doston ijrochilarining (baxshilarning) ijodiy mahsuli hisoblanadi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, mualliflar tomonidan yaratilgan yozma adabiyotdagi ayrim dostonlarning xalq orasida tarqalgan og'zaki variantlar asosida ijod qilingan.

Qoraqalpoq xalqining ma'naviy hayotiga oid qadimiy davrlardagi yodgorliklari aksariyat hollarda bizgacha etib kelmagan. Faqatgina og'zaki an'anadagi adabiyot qatlamiga tegishli mualliflarning nomlarigina saqlanib qolgan. Masalan, XIV-XV asrlarda Soppasli Sipira jirov, Asan-qayg'i, Jirenshe-chechan kabi shoir va baxshilar yashab ijod qilganlar. Namlari qayd etilgan ijodkorlar qoraqalpoq adabiy ijodiyotining asoschilari hisoblanadi. Ular yaratgan dostonlar, qo'shiqlar, afsonalar hozirgi davrgacha xalq orasida saqlanib kelinmoqda.

XVIII – XIX asrlarda Jiyen jirov, Kunxo'ja, Ajiniyaz, Berdax, O'tesh kabi xalq shoirlari ijod qilganlar. Bu davrda doston janri yozma adabiyot shakllanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatganligi ma'lum bo'ladi. Ajiniyazning «Bo'zatov» poemasi, Berdaxning «Ernazarbiy», «Aydos biy», «Raushan» va boshqa dostonlari xalq mehrini qozongan. An'anaga ko'ra, shoirlar xalq dostonlarining targ'ibotchisi, termalarni kuylovchi jirov, baxshi hamda qissaxon sifatida ham namoyon bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, ularning aksariyat asarlari o'qish emas, balki kuylash uchun mo'ljallangandir.

Dostonchi va shoir Jiyen jirov (1830-1884) qoraqalpoq she'riyatining otasi deb tan olingan .

Berdax (1827-1900)ning ijodiy merosi qoraqalpoq ma'naviy merosida alohida o'ringa ega. U she'riyatni yangi mavzular bilan boyitdi.

Bo'lajak shoir Orol bo'yida yashovchi baliqchi Qarg'aboy oilasida dunyoga keldi. Unga Berdimurod deb ism qo'yildi. Onasi o'g'lini erkab Berdax deb chaqirardi. Shu nom bilan u she'riyat dunyosiga kirdi. Berdax yoshlik davridan xalq og'zaki adabiyotini va Sharq mumtoz she'riyatini o'rgandi. Berdaxning shoir sifatida shakllanishida uning zamondoshlari bo'lmish Kunxo'ja va Ajiniyazlar turtki bo'ldilar. Berdaxdagi kuylash iste'dodi o'z asarlarini xalqqa etkazish uchun juda qo'l keldi. Xalq orasida u «Berdax shoir» va «Berdax baxshi» nomi bilan mashhurlashdi. Berdax barcha to'ylar, katta xalq bayramlarining sevimli mexmoni edi. Berdax o'z asarlarini dutor jo'rligida ijro qilardi.

Tadqiqotchilar zamonaviy qoraqalpoq jirov va baxshilarining repertuarida 50 dan ortiq dostonlar borligini aniqladilar. Ular orasida nafaqat Markaziy Osiyo,



balki Yaqin Sharqda keng tarqalgan «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Edigey», «Oshiq G'arib» kabi dostonlar va mahalliy xalq orasida tarqalgan «Qirq qiz», «Maspatsha», «Sharyar» dostonlari uchraydi.

«Alpamis» – qahramonlik eposining yorqin namunasi. Tadqiqotchilarning fikricha, «Alpamis» epik janr sifatida dastlab Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo'yida o'zbek, qoraqalpoq va qozoq xalqlari shakllanmasdan avval yuzaga keladi.

Og'zaki an'anadagi ijodiyot namunalarining qachon paydo bo'lganligini aniqlash nihoyatda murakkab masaladir. Folklor asarlari og'zaki tarzda yashab, bizgacha ancha o'zgarigan qiyofada etib keladi.

Tahlil va natijalar. «Alpamis» dostoni bir necha yuz yillar davomida og'zaki an'ana jarayonida yashab, turli o'zgarishlarga uchragan. Doston o'zining shakllanishi jarayonida ba'zan qisqartirilgan, ba'zan esa turli xil o'zgarishlarga uchragan. Shu sababli bu dostonning yaratilgan joyi va vaqti haqida turli fikrlar mavjud. Masalan, A.K.Borovkovning fikricha, «Alpamis» qo'ng'iroq elining dostoni hisoblansa, V.M.Jirmunskiyning fikriga ko'ra qadimiy qahramonlik qo'shiqlar yoki ertaklar asosida shakllangan Alpamis haqidagi doston Shayboniyxonning ko'chmanchi o'zbeklari (XVI asr) tomonidan Janubiy O'zbekistonga olib kelingan bo'lib, shu tariqa o'zbeklar, qoraqalpoqlar va qozoqlar orasida keng tarqala boshlagan. X.T.Zarifov o'zgacha fikrni ilgari suradi, ya'ni «Alpamis» dostoni mo'g'ullar bosqinchiligidan oldin Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo'yida turkiyzabon ko'chmanchi qo'ng'iroq qavmining ijod mahsuli hisoblanadi. «Alpamis» dostonida qo'ng'iroq elining rivojida urug'-qabilachilik tadrijiyot bosqichlari o'z aksini topgan. «Alpamis»da botirlik, muhabbat, sadoqat, oiladagi tinchlik kabi mavzular rivojlantirilgan. Bu doston jirovlar tomonidan qo'biz (o'zbek baxshilari tomonidan do'mbira) jo'rligida ijro etiladi. Asarda she'riy qismlar proza matnlari bilan almashinib keladi.

Sharqda keng tarqalgan dostonlarning yana biri «Go'ro'g'li» turkumidir. «Go'ro'g'li» dostoni qoraqalpoq xalqida XVIII asrning o'rtalaridan tarqala boshlagan. Aslida bu dostonning vatani Ozarbayjon hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Qoraqalpoq dostonchilik san'ati xalqning boy madaniy va ma'naviy merosining muhim qismini tashkil etadi. Asrlar davomida shakllangan va rivojlangan bu san'at turi xalq an'analari, og'izaki ijodlari va etnik o'zligi bilan chambarchas bog'liq. Qoraqalpoq dostonchilik san'ati o'zining tarixi davomida turli bosqichlarni bosib o'tdi va zamonaviy davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Dastlabki bosqichlardashakllangan dostonlar, qo'shiqlar va afsonalar orqali xalq o'z bilimlari va qadriyatlarini avlodlarga etkazgan. Zamonaviy texnologiyalar va yangi ijodkorlar bu san'at



turini yanada boyitib, uni zamonaviy davr talablariga moslashtirmoqda. Qoraqalpoq dostonchilik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish xalqning o'z milliy merosiga bo'lgan ehtiromi va kelajak avlodlarga bo'lgan ishonchini ifoda etadi.

Qoraqalpoq dostonchilik san'atiga oid barcha yozma va og'izaki manbalarni to'plash, arxivlashtirish va saqlash choralarini ko'rish zarur. Bu ishni davlat va mahalliy madaniy tashkilotlar hamkorligida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lib, qoraqalpoq dostonchilik san'atini chuqur o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish, bu yo'nalishdagi izlanishlar madaniy merosni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek zamonaviy texnologiyalar va media vositalardan foydalanib, qoraqalpoq dostonchilik san'atini keng ommaga etkazish va uning qadrlanishini ta'minlash, undan tashqari dostonchilik san'ati bo'yicha festivallar va ko'rik tanlovlarni tashkil qilish san'at turiga bo'lgan qiziqishni oshiradi va yangi ijodkorlarni qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro madaniy tashkilotlar va tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilib, qoraqalpoq dostonchilik san'atini xalqaro maydonlarda targ'ib qilish va uning ahamiyatini oshirish qoraqalpoq dostonchilik san'atini saqlab qolish va rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Adambaeva T. Revolyutsiyag'a shekemgi qaraqalpaq muzikasi. Nukus, 1976. 67-bet.
2. Azimova A.N. Zvukovoy mir karakalpakov. Tashkent, 2008. 114-bet.
3. Ayimbetov Q. Xaliq danalig'i. Nukus, 1988. 86-bet.
4. Qaraqalpaq xaliq namalari (Kirish so'zi) // O'zbek xalq muzikasi. VIII tom. Toshkent, 1959. 407 b.
5. Qurbonov X. Qoraqalpoq jirovchilik san'atining musiqiy xususiyatlari. Diplom ishi. 1998. O'zDK kutubxonasi. 101-102-bet.